

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAMANAZAROV UCHQUN BURXON O‘G‘LI**

**O‘SMIRLIK DAVRIDA AXLOQIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHNI  
RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06-Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT– 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li**

О'zmirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlanishining psixologik  
xususiyatlari..... 3

**Маманазаров Учкун Бурхон угли**

Психологические особенности развития нравственного самосознания в  
подростковом возрасте..... 21

**Mamanazarov Uchqun**

Psychological features of the development of moral self-awareness in  
adolescence..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MAMANAZAROV UCHQUN BURXON O‘G‘LI**

**O‘SMIRLIK DAVRIDA AXLOQIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHNI  
RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06-Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT– 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P130 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Karshiyeva Dilafruz Suyunovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Begmatov Abdullajon Sirojiddinovich**  
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Isakova Muazzam Tulkinovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil. 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, CHilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32); faks: (+99871) 276-76-51;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Z.T.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda oliy ta'lim tizimida o'z kasbiy burchlarini yuqori darajada bajaradigan, o'z faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan, ma'lum bir vaziyat uchun ongli va to'g'ri qaror qabul qila oladigan, innovatsion jarayonlarga moslashuvchan munosabatda bo'ladigan malakali mutaxassislariga ehtiyoj ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2019-yil 25-iyuldagi 73-Sessiyasida «inson shaxsining axloqiy o'zini-o'zi anglashi va adekvat anglashi fenomemi hamjihatlikka erishish, o'zaro hamfikrlikni xalqaro hamjamiyatda doimiy ravishda safarbar etishga hizmat qilishi» alohida ta'kidlangan. Bu borada kelajak avlodni ayniqsa, o'smirlik davridan axloqiy o'zini-o'zi anglashining psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishini ustuvor vazifa sifatida qarash va xulq-atvorini adekvat shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va ilmiy tadqiq etishni taqazo etadi.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida shaxs kamoloti, ta'lim-tarbiyasi, o'zini-o'zi anglashining psixologik xususiyatlari borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buyuk Britaniya Ijtimoiy Fanlar Akademiyasining «Ijtimoiy fanlar bo'yicha umumiy axloq tamoyillari»<sup>1</sup> alohida ahamiyatli masala sifatida e'tirof etilgan. Bu borada yoshlarda o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash, shaxslararo munosabatlarga faol kirisha olishning psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, yaxshilik va yomonlikning o'zaro munosabatlar borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilib, mazkur muammoni o'smirlik davridanoq axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlanishining psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda o'quvchi-yoshlarda yuksak bilim va iste'dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik masuliyatining shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o'qitish tizimini qaror toptirish, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta'minlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish»<sup>2</sup> vazifalariga asoslanib, shaxsda axloqiy o'zini-o'zi anglash xususiyatini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish

<sup>1</sup>[https://gupea.ub.gu.se/bitstream/handle/2077/24985/gupea\\_2077\\_24985\\_1.pdf;jsessionid=37B24375072CCCC72D5B205677A3FDFF?sequence=1](https://gupea.ub.gu.se/bitstream/handle/2077/24985/gupea_2077_24985_1.pdf;jsessionid=37B24375072CCCC72D5B205677A3FDFF?sequence=1)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» <http://lex.uz/docs/3107036>

chora tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori hamda ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, N.B.Atabayeva, V.M.Karimova, N.G'.Kamilova, Z.T.Nishonova, I.M.Rasulova, F.F.Rasulova, N.T.Ubaydullayev, N.Odilova, N.Oribjonova E.G'.G'oziyev, A.N.Qurbonboyev, N.I.Xalilova, F.P.Rajabova va boshqalar o'quv faoliyatidagi individual psixologik xususiyatlar, vatanparvarlik hissi, egoizm, iroda va irodaviy sifatlar, nizoli vaziyatlarda shaxs xulq-atvori, alturistik xulq-atvor, milliy tarbiya, axloqiy tushunchalar, o'zini-o'zi boshqarish, ma'naviy ehtiyojlar, o'zini-o'zi faollashtirish, refleksivlik, o'zini-o'zi idora qilish motivatsiyasi, assertiv xulq, resosializatsiyasining psixologik xususiyatlari, agressiv xulq-atvor bilan o'zaro bog'liqligi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Абулханова-Славская, Б.Г.Ананьев, Л.С.Выготский, С.Л.Рубинштейн, В.Д.Шадриков, А.Г.Асмолов, Л.И.Божович va boshqalarning izlanishlarida axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishining masalalari, o'zini-o'zi anglashning tuzilishi, dunyoqarashni shakllantirish, otnogenezda o'zini-o'zi anglashni rivojlantirish muammolari, hayot rejasi muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqish muammosi ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Xorij mutaxassislaridan Lourens Kohlberg, Jan Piaje, Niklas Luhman, Kerol Gilligan, Albert Bandura, Melanie Klein va boshqalar shaxs o'zini-o'zi anglash, axloqiy kamolot, axloqiy sohaning tarkibiy komponentlarini namoyon bo'lishi, o'smir axloqiy sifatlarini shakllanishiga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024-y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni psixologik xususiyatlarini rivojlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

shaxsning emotsional qadriyatlarining irodaviy sifatlar, xulq-atvorga vektorli ta'siri axloqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlab berishiga asoslanib yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ijtimoiy faollikka intilish hissi orqali shaxsning o'ziga munosabatini shakllanishiga olib kelishini tadqiq qilish;

o'smirlik davridagi yoshga oid xususiyatlarga ko'ra shaxsning o'z majburiyatlariga nisbatan emotsional munosabat ekzistensial mas'uliyatni psixologik emansipatsiya ta'sirida pasayishiga olib kelganligi tufayli bolaning o'z «Men»ini ijtimoiy tasdiqlash istagi bilan bog'liq altruistik kechinmalarni «alter Ego»ga singdirgan holda axloqiy yo'nalganlikda namoyon qilishini tadqiq qilish;

o'smirlarning axloq haqidagi tasavvurlari ta'limga nisbatan mas'uliyat hissi, emotsional qadriyatlar negizida rivojlanadigan do'stlik, sevgi-muhabbat hislari egotsentrik yo'nalganlikni pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs axloqiy yo'nalganligining integral xususiyatlarini ijtimoiy ustanovkalar ta'sirida namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi bilan bog'liq psixologik xususiyatlarni aniqlash;

o'smirlarda axloqiy o'zini-o'zi anglashning rivojlanishida ijtimoiy meyorlarni anglash va tushunishning faol axloqiy ustanovkalar bilan aloqador tasavvurlarini guruh munosabatlar ta'sirida iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog'liq o'zgarishiga erishish rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ekti sifatida** o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlanishi jarayoni olingan bo'lib, Toshkent shahar Olmazor tumani 165-umumiy o'rta ta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilaridan 56 nafar, 9-sinf o'quvchilaridan 48 nafar, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi 7-sinfi o'quvchilaridan 37 nafar, 9-sinf o'quvchilaridan 39 nafar, Namangan viloyati Namangan shahar 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilaridan 76 nafar, 9-sinf o'quvchilaridan 65 nafar, jami 321 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini** o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlanishining xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, shuningdek, A.Y.Vorobyeva, A.B. Kupreychenkolarning «Shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglash» metodikasi, V.V.Stolin, S.R.Panteleevlarning «O'z-o'ziga munosabat», I.G.Timoshukaning «Shaxsning axloq-odobga bo'lgan mas'uliyatlik darajasini diagnostika qilish» metodikasi, N.P.Kapustin, M.I.Shilovalarning «Tarbiyalanganlik, ta'lim darajasini aniqlash» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Spirmen, Vilkokson mezonlari orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilarda ifodalangan:

o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlariga ko'ra emotsional qadriyatlarining irodaviy sifatlar, xulq-atvorga vektorli ta'siri axloqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlab berishiga asoslanib

yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ijtimoiy faollikka intilish hissi orqali shaxsning o'ziga munosabatini shakllanishiga olib kelishi dalillangan;

o'smirlik davridagi yoshga oid xususiyatlarga ko'ra shaxsning o'z majburiyatlariga nisbatan emotsional munosabat ekzistensial mas'uliyatni psixologik emansipatsiya ta'sirida pasayishiga olib kelganligi tufayli bolaning o'z «Men»ini ijtimoiy tasdiqlash istagi bilan bog'liq altruistik kechinmalarni «alter Ego»ga singdirgan holda axloqiy yo'nalganlikda namoyon qilishi aniqlangan;

o'smirlarning axloq haqidagi tasavvurlari ta'linga nisbatan mas'uliyat hissi, emotsional qadriyatlar negizida rivojlanadigan do'stlik, sevgi-muhabbat hislari egotsentrik yo'nalganlikni pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs axloqiy yo'nalganligining integral xususiyatlarini ijtimoiy ustanovkalar ta'sirida namoyon bo'lishiga bog'liq ekanligi dalillangan;

o'smirlarda axloqiy o'zini-o'zi anglashning rivojlanishida ijtimoiy meyorlarni anglash va tushunishning faol axloqiy ustanovkalar rakursida individuallashuvi bolaning o'z «Meni» haqida pozitiv tasavvurlarni shakllanishiga olib kelganligi tufayli shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlarini guruhiy munosabatlar ta'sirida iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog'liq o'zgarishiga erishish muhimligi aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

axloqiy o'zini-o'zi anglashning tarkibiy qismlari va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlab, o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar yaratildi. Ushbu ko'rsatmalar o'smirlarning axloqiy xulq-atvorini tushunish va anglashda qo'llab-quvvatlash, tuzilgan psixologik va hissiy o'sish usullari orqali o'zini-o'zi anglash va mas'uliyatni chuqurroq rivojlantirishga yordam beriladi va amaliyotga kiritilgan;

o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishini tekshirishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodikalari taklif etilib, aprotatsiya qilingan;

o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni rivojlantirish uchun pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar boyitilgan va o'smirlarda axloqiy va mas'uliyat hissini kuchaytirishga yordam beradigan axloqiy o'sishni rivojlantirish uchun amaliyotga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi, olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilingani, tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslangani, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilgani, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilgani va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash «SPSS 14» dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlangani va shu asosda psixologik interpretatsiya qilingani, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani bilah izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular insondagi axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishi, axloqiy etnik mas'uliyat, vijdonlilik va axloqiy o'zini-o'zi anglash o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab beradi va o'smirlik davridagi hayotiy maqsadlarni axloqiy o'zini-o'zi anglash

rivojlanishiga ta'sir qiluvchi psixologik mexanizmlarning mohiyatini ochib berilganligi hamda olingan natijalar «Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya» fanini nazariy jihatdan to'ldirishga xizmat qilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan eksperimental va empirik ma'lumotlardan shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishi jarayonining samaradorligini oshirish uchun foydalanish mumkin, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishi tizimi bilan bog'liq kontseptual nazariyani shakllantirishga xizmat qilishi mumkin, axloqiy anglashni tekshirish uchun mo'ljallangan metodologiyalardan foydalanish, o'smirlik davrida korreksion va rivojlanish yo'nalishini oydinlashtirish, shuningdek, «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya», «Umumiy psixologiya», «Psixologik trening asoslari», «Psixologik xizmat» fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlash, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishining psixologik xususiyatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlariga ko'ra emotsional qadriyatlarining irodaviy sifatlar, xulq-atvorga vektorli ta'siri axloqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlab berishiga asoslanib, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ijtimoiy faollikka intilish hissi orqali shaxsning o'ziga munosabatini shakllanishiga olib kelishi dalillangan xulosalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025–yil 23-avgustdagi PM-426-buyrug'iga ko'ra «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025–yil 20-avgustdagi PM-426 a–son ma'lumotnomasi). Natijada, shaxsning emotsional qadriyatlarining irodaviy sifatlar, xulq-atvorga vektorli ta'siri axloqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorlikni ta'minlab berishiga asoslanib yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ijtimoiy faollikka intilish hissi orqali shaxsning o'ziga munosabatini shakllanishiga olib kelishi tadqiq qilingan;

o'smirlik davridagi yoshga oid xususiyatlarga ko'ra shaxsning o'z majburiyatlariga nisbatan emotsional munosabat ekzistensial mas'uliyatni psixologik emansipatsiya ta'sirida pasayishiga olib kelganligi tufayli bolaning o'z «Men»ini ijtimoiy tasdiqlash istagi bilan bog'liq altruistik kechinmalarni «alter Ego»ga singdirgan holda axloqiy yo'nalganlikda namoyon qilishi aniqlangan xulosalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025–yil 23-avgustdagi PM-426-buyrug'iga ko'ra «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025–yil 20-avgustdagi PM-426 a–son ma'lumotnomasi). Natijada, o'smirlik davridagi yoshga oid xususiyatlarga ko'ra shaxsning o'z majburiyatlariga nisbatan emotsional munosabat ekzistensial mas'uliyatni psixologik emansipatsiya ta'sirida pasayishiga olib kelganligi tufayli bolaning o'z «Men»ini ijtimoiy tasdiqlash

istagi bilan bog‘liq altruistik kechinmalarni «alter Ego»ga singdirgan holda axloqiy yo‘nalganlikda namoyon qilishini tadqiq qilib chiqilgan.

o‘smirlarning axloq haqidagi tasavvurlari ta’limga nisbatan mas’uliyat hissi, emotsional qadriyatlar negizida rivojlanadigan do‘stlik, sevgi-muhabbat hislari egotsentrik yo‘nalganlikni pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs axloqiy yo‘nalganligining integral xususiyatlarini ijtimoiy ustanovkalar ta’sirida namoyon bo‘lishiga bog‘liq ekanligi dalillangan xulosalar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025–yil 23-avgustdagi PM-426-buyrug‘iga ko‘ra «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025–yil 20-avgustdagi PM-426 a–son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smirlarning axloq haqidagi tasavvurlari ta’limga nisbatan mas’uliyat hissi, emotsional qadriyatlar negizida rivojlanadigan do‘stlik, sevgi-muhabbat hislari egotsentrik yo‘nalganlikni pasayishiga olib kelganligi tufayli shaxs axloqiy yo‘nalganligining integral xususiyatlarini ijtimoiy ustanovkalar ta’sirida namoyon bo‘lishiga bog‘liq ekanligi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarni aniqlashga erishilgan;

o‘smirlarda axloqiy o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishida ijtimoiy meyorlarni anglash va tushunishning faol axloqiy ustanovkalar rakursida individuallashuvi bolaning o‘z «Meni» haqida pozitiv tasavvurlarni shakllanishiga olib kelganligi tufayli shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlarini guruh munosabatlar ta’sirida iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog‘liq o‘zgarishiga erishish muhimligi aniqlangan xulosalar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025–yil 23-avgustdagi PM 426-buyrug‘iga ko‘ra «Ontogenez psixologiyasi va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025–yil 20-avgustdagi PM 426 a–son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘smirlarda axloqiy o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishida ijtimoiy meyorlarni anglash va tushunishning faol axloqiy ustanovkalar bilan aloqador tasavvurlarini guruh munosabatlar ta’sirida iroda kuchi lokalizatsiyasiga bog‘liq o‘zgarishiga erishish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» o‘quv fani doirasidagi mavzular mazmuni va o‘quv-uslubiy majmua takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tkazilishi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan ilmiy jurnallarda 5 ta (3 ta respublika jurnallari, 2 ta xorij jurnali) maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi tahlili keltirilgan, ilmiy tadqiqot ishlari reja mavzulari bilan bog'liqligi asoslangan, ilmiy tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti bayon etilgan, qo'llanilgan metodlar, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy tahlili bayon etilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Shaxsda axloqiy o'zini-o'zi anglash muammosini pedagogik-psixologik manbalarda o'rganilganligi**» deb nomlangan bo'lib, shaxs axloqiy kamoloti muammosiga doir O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, N.B.Atabayeva, N.G'.Kamilova, F.F.Rasulova, N.T.Ubaydullayev, N.G.Odilova, A.N.Qurbonboyev, N.I.Xalilova, N.Sh.Oribjonova, A.Sh.Nurmamatov va boshqalarning tadqiqotlarida mavzuga oid ilmiy yondashuv masalalari berilgan.

«**O'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishining amaliy talqini**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglash rivojlanishining psixologik xususiyatlari, axloqiy mas'uliyatlik, vijdoniylikni o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashni ta'minlashning asosi sifatida, o'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglashga hayotiy maqsadlarni anglanganlik darajasini ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

### 1-jadval.

**A.Y.Vorobeva va A.B.Kupreychenkolarning «Shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglash» metodikasi va V.VStolin, S.R.Panteleyevning «O'z-o'ziga munosabat» test-so'rovnomasi o'rtasidagi bog'liqlik natijalari (Spirmen mezoni, n=321)**

Axloq to'g'risidagi tasavvurlar	O'z-o'ziga bo'lgan munosabat	O'z o'ziga hurmat	O'z o'ziga ishonch	O'zini-o'zi ayblash	O'zini-o'zi tushunish
Axloqning namoyon bo'lishi	-0,036	-0,050	0,025	0,034	-0,121*
Yomonlik uchun qasos olish	-0,015	-0,007	-0,006	0,111*	-0,002
Axloqiy strategiyalardan axloqiy meyorlarga rioya qilish majburiyati shkalasining emotsional komponenti	-0,057	-0,067	0,102	0,138*	-0,049
Faollik-passivlik shkalasining kognitiv komponenti	0,046	0,124*	-0,014	0,028	-0,033
Faollik-passivlik shkalasining konativ komponent	-0,141*	0,018	-0,045	0,086	0,021
Axloqiy xatti-harakatlarning o'zaro bog'liqligi shkalasining kognitiv komponenti	0,083	-0,086	-0,135*	0,061	-0,002
Axloqiy xatti-harakatlarning o'zaro bog'liqligi shkalasining emotsional komponenti	-0,022	-0,011	-0,012	-0,007	-0,116*

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ .

O'smirlik davrida axloqiy o'zini-o'zi anglash komponentlarini rivojlanganlik darajasini o'rganish maqsadida A.Y.Vorobeva va A.B.Kupreychenkolarning «Shaxsning axloqiy o'zini-o'zi anglash» metodikasi va V.V.Stolin, S.R.Panteleyevning «O'z-o'ziga munosabat» test-so'rovnomasi, olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Axloq to'g'risidagi tasavvurlardan axloqning namoyon bo'lishi o'zini-o'zi tushunish ( $r = -0,121$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan manfiy aloqadorlikka ega. Salbiy korrelyatsiya axloqiy xulq-atvorni kuchli namoyon qiladigan shaxslar o'zlarini tushunishda kamroq ravshanlikka ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu axloqiy xulq-atvor bilan bog'liq bo'lgan tashqi bosim yoki jamiyatning umidlaridan kelib chiqishi mumkin. Axloqning namoyon bo'lishi ko'pincha tashqi tasdiqlash yoki ijtimoiy meyorlarga muvofiqlikni o'z ichiga olganligi sababli yuzaga kelishi mumkin.

Yomonlik uchun qasos olish o'zini-o'zi ayblash ( $r = 0,111$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan musbat aloqadorlik shuni anglatadiki qasoskor o'smirlarda shaxsiy muvaffaqiyatsizliklar yoki axloqiy kamchiliklar uchun o'zlarini ayblash ehtimoli ko'proq ekanligini ko'rsatishi mumkin. Bu nafaqat boshqalarga, balki o'ziga nisbatan ham axloqiy mulohazaga nisbatan sezgirlikni ko'rsatishi mumkin. Bu munosabatlar qasosni ta'kidlaydigan o'smirlarda javobgarlikni, hatto o'z-o'zini tanqid qilish darajasiga qadar o'z ichiga olgan qat'iy axloqiy asosdan kelib chiqishi mumkin.

Axloqiy meyorlarga rioya qilish majburiyatidan emotsional komponenti o'zini-o'zi ayblash bilan ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi ( $r = 0,138$ ,  $p \leq 0,05$ ), bu axloqqa emotsional jihatdan o'zini-o'zi tanqid qilishga ko'proq moyil ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jihatlariga rioya qilishdagi muvaffaqiyatsizlikka uchragan vaqtda emotsional tuyg'ularini uyg'otishi mumkin.

Faoliyat-passivlikning kognitiv komponenti o'z-o'zini hurmat qilish bilan ijobiy korrelyatsiyani ko'rsatadi ( $r = 0,124$ ,  $p \leq 0,05$ ). Bu shuni ko'rsatadiki, axloqqa intellektual yoki oqilona yondashgan shaxslar o'zini-o'zi yuqori anglashida va axloq bilan oqilona shug'ullanish insonning axloqiy qarorlarida aniqlik va ishonchni ta'minlashi, o'z qadr-qimmatini oshirishi mumkin.

Faoliyat-passivlikning konativ komponenti o'zini-o'zi hurmat qilish bilan salbiy korrelyatsiyani ko'rsatadi ( $r = -0,141$ ;  $p \leq 0,05$ ). Bu shuni ko'rsatadiki, ixtiyoriy, harakatga yo'naltirilgan axloqqa asoslangan shaxslar o'zini-o'zi hurmat qilish bilan kurashishi mumkin. Konativ yondashuv har doim ham natijalar yoki shaxsiy umidlarga mos kelmasligi mumkin bo'lgan axloqiy impulslar asosida harakat qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Axloqiy xulq-atvorning kognitiv komponenti o'ziga ishonch bilan salbiy bog'liqlikka ega ( $r = -0,135$ ,  $r \leq 0,05$ ). Bu shuni ko'rsatadiki, axloqiy fikrlashning intellektual jihatlari bilan chuqur shug'ullanadigan shaxslar o'z qarorlarini ikkinchi darajali taxmin qilinishi va axloqiy qarorlarni ortiqcha tahlil qilish noaniqlikka olib kelishi mumkin.

Axloqiy xulq-atvorning hissiy komponenti o'zini-o'zi anglash bilan salbiy korrelyatsiyani ko'rsatadi ( $r = -0,116$ ,  $r \leq 0,05$ ). Bu shuni ko'rsatadiki, hissiy ishtirok e'tiborni shaxsiy qadriyatlar va motivatsiyalarga emas, balki tashqi ko'rinishga munosabatlarga, ijtimoiy kutishlarga yoki axloqiy natijalarga qaratib, o'zini-o'zi aks ettirishi mumkin.

**A.Y.Vorobeva va A.B.Kupreychenkolarning «Shaxsning axloqiy o‘zini-o‘zi anglash» metodikasi va I.G.Timoshukaning «Shaxsning axloq-odobga bo‘lgan mas’uliyatlik darajasini diagnostika qilish» metodikasi o‘rtasidagi bog‘liqlik natijalari (Spirmen mezoni, n=321)**

Axloqiy strategiyalar	Ekzistensial ma'uliyatlilik	Altruistik emotsiya
Axloqiy meyorlarga rioya qilish majburiyatining emotsional komponent	-0,119*	-0,158**
Faollik-passivlikning konativ komponent	-0,177**	-0,066
Shaxsning axloqiy yo‘nalganligidan dunyoga yo‘nalganlik	-0,132*	-0,130*

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

Axloqiy meyorlarga rioya qilish majburiyatidan emotsional komponent ekzistensial ma'uliyatlilik ( $r = -0,119$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan manfiy bog‘liqlik shuni anglatadiki, axloqiy meyorlarga rioya qilishda kuchli emotsional hislarni boshdan kechirgan o‘smirlar ekzistensial mas’uliyatni kamroq his qilishlari mumkin. Altruistik tuyg‘u bilan salbiy korrelyatsiya ( $r = -0,158$ ,  $p \leq 0,01$ ) shuni ko‘rsatadiki, axloqiy meyorlarga hissiy qiyinchiliklar altruistik his-tuyg‘ularga zid kelishi mumkin. Faollik-passivlikdan konativ komponent ekzistensial mas'uliyatlilik ( $r = -0,177$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan manfiy bog‘liqlikka shuni ko‘rsatadiki, axloqiy harakatlarga kamroq e'tibor qaratadigan odamlar o‘zlarining kengroq ekzistensial tanlovlarini kamroq nazorat qilishlari mumkin.

Shaxsning axloqiy yo‘nalganligidan dunyoga yo‘nalganlik ekzistensial mas'uliyatlilik ( $r = -0,132$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan manfiy korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, dunyoga yo‘nalishi o‘zgaruvchan axloqiy maqsadlarga e'tibor qaratilishi ekzistensial mas’uliyatning pasayishiga olib kelishi mumkin. Altruistik tuyg‘u bilan salbiy korrelyatsiya ( $r = -0,130$ ,  $r \leq 0,05$ ) dunyoviy maqsadlarga e'tibor berish altruistik his-tuyg‘ularni pasayishiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishimizning keyingi bosqichida o‘smirlik davrida axloqiy o‘zini o‘zi anglash va tarbiyalanganlik, ta’lim darajasini o‘rganish maqsadida A.Y.Vorobeva va A.B.Kupreychenkolarning “Shaxsning axloqiy o‘zini-o‘zi anglash” metodikasi va N.P.Kapustin, M.I.Shilovanning “Tarbiyalanganlik, ta’lim darajasini aniqlash” so‘rovnomasi o‘tkazilib, olingan natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

Unga ko‘ra axloq to‘g‘risidagi tasavvurlardan axloqning namoyon bo‘lishi jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r = 0,147$ ;  $p \leq 0,01$ ), halollik va adolat ( $r = 0,145$ ;  $p \leq 0,01$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r = 0,116$ ;  $p \leq 0,05$ ), madaniyat darajasining ( $r = 0,125$ ;  $p \leq 0,05$ ) oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

### 3-jadval.

**A.Y.Vorobeva va A.B.Kupreychenkolarning «Shaxsning axloqiy o‘zini-o‘zi anglash» metodikasi va N.P.Kapustin, M.I.Shilovaning «Tarbiyalanganlik, ta’lim darajasini aniqlash» so‘rovnomasi o‘rtasidagi bog‘liqlik natijalari (Spirmen mezoni, n=321)**

Axloq to‘g‘risidagi tasavvurlar	Burch va mas’ uliyat	Tejamkorlik	Intizomlilik	Oqishga nisbatan mas’ uliyatli munosabat	Jamoatchilik mehnatiga munosabat	Jamoatchilik, dostlik hissi	Xushmuomalalik	Halollik va adolat	Oddiylik va kamtarlik	Madaniyat darajasi
Axloq namoyon bo‘lishi	0,07	0,000	0,088	0,035	0,147*	0,074	0,069	0,145*	0,116*	0,125*
Axloqiy meyorlarnig kognitiv komponenti	-0,127*	-0,004	-0,076	-0,048	-0,062	-0,092	-0,066	-0,097	-0,033	-0,068
Axloqiy meyorlarning konativ komponenti	-0,100	-0,050	-0,113*	-0,071	-0,044	-0,083	-0,099	-0,100	-0,142*	-0,064
Faollik-passivlikning kognitiv komponenti	0,145*	0,170	0,105	0,160**	0,087	0,171**	0,149*	0,073	0,127*	0,067
Faollik-passivlikning emotsional komponenti	0,084	0,080	0,031	0,056	0,055	0,120*	0,050	0,079	0,041	0,049
Faollik-passivlikning konativ komponenti	0,096	0,113*	0,122*	0,069	0,138	0,104	0,077	0,107	0,005	0,011
Axloqiy xatti-harakatlarnig kognitiv komponenti	0,110*	0,040	0,097	0,122	0,105	0,125*	0,097	0,043	0,191**	0,114*
Axloqiy xatti-harakatlar emotsional komponent	0,192**	0,119*	0,093	0,115*	0,040	0,120*	0,103	0,115*	0,081	0,101
Egosentrik yo‘nalganlik	0,135*	0,075	0,057	0,155**	0,142*	0,167**	0,136*	0,055	0,118*	0,033
Guruhga yo‘nalganlik	0,128*	0,126*	0,082	0,169**	0,124*	0,195**	0,178**	0,107	0,153**	0,071
Gumanistik yo‘nalganlik	0,164**	0,117*	0,177**	0,185**	0,190**	0,153**	0,213**	0,165**	0,154**	0,073
Dunyoga yo‘nalganlik	0,201**	0,199**	0,195**	0,293**	0,255**	0,224**	0,245**	0,198**	0,188**	0,146**

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

Axloqiy tasavvurlar va jamoatchilik mehnatiga munosabat o'rtasida sezilarli ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,147$ ;  $p\leq 0,01$ ) mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, kuchli axloqiy tushunchaga ega bo'lgan o'smirlar jamoat ishlarini qadrlashadi. Bu munosabatlar axloq nafaqat ichki tuzilma, balki jamoaviy farovonlikda faol ishtirok etishga olib keladigan g'oyani ta'kidlaydi.

Axloq namoyon bo'lishi va halollik o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,145$ ;  $p\leq 0,01$ ) kuchli axloqiy yo'nalishga ega bo'lgan shaxslarning insofsizlik yoki axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi turish qobiliyatini ko'rsatishi mumkin. Kamtarlik va axloqiy in'ikoslar ijobiy o'zaro bog'liqdir ( $r=0,116$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu kamtarlikni axloq bilan bog'liq asosiy xususiyat sifatida aks ettiradi. Kamtarlik fidoyilik va tenglikning axloqiy qadriyatlariga mos keladi va shaxsning katta jamoaning bir qismi sifatidagi rolini ta'kidlaydi.

Axloq namoyon bo'lishi va madaniyat darajasi o'rtasida sezilarli ijobiy korrelyatsiya ( $r=0,125$ ;  $p\leq 0,05$ ) mavjud. Bu axloqqa qanday ta'sir qilishini va madaniy takomillashtirishga hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Axloqni kuchli idrok etgan shaxslar xushmuomalalik, madaniyatlilik va boshqalarni hurmat qilish kabi nozik madaniy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi

Faollik-passivlikdan kognitiv komponentning rivojlanganligi burch va mas'uliyat ( $r=0,145$ ;  $p\leq 0,01$ ), tejamkorlik ( $r=0,170$ ;  $p\leq 0,01$ ), o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat ( $r=0,160$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik, do'stlik hissi ( $r=0,171$ ;  $p\leq 0,01$ ), xushmuomalalik va sezgirlik ( $r=0,149$ ;  $p\leq 0,01$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,127$ ;  $p\leq 0,05$ ) kabi xususiyatlarning oshishiga, emotsional komponentning shakllanganligi jamoatchilik, do'stlik hissining ( $r=0,120$ ;  $p\leq 0,05$ ) oshishiga, konativ komponentning shakllangan ekanligi tejamkorlik ( $r=0,113$ ;  $p\leq 0,05$ ), intizomlilik ( $r=0,122$ ;  $p\leq 0,05$ ), jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r=0,138$ ;  $p\leq 0,05$ ) oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Axloqiy xatti-harakatlarning o'zaro bog'liqligidan kognitiv komponent shakllanganligi burch va mas'uliyat ( $r=0,110$ ;  $p\leq 0,05$ ), o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat ( $r=0,122$ ;  $p\leq 0,05$ ), jamoatchilik, do'stlik hissi ( $r=0,125$ ;  $p\leq 0,05$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,191$ ;  $p\leq 0,01$ ), madaniyat darajasining ( $r=0,114$ ;  $p\leq 0,05$ ) oshishiga olib bo'lishi mumkin.. Emotsional komponentning rivojlanganli burch va mas'uliyat ( $r=0,192$ ;  $p\leq 0,01$ ), tejamkorlik ( $r=0,119$ ;  $p\leq 0,05$ ), o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat ( $r=0,115$ ;  $p\leq 0,05$ ), jamoatchilik, do'stlik hissi ( $r=0,120$ ;  $p\leq 0,05$ ), halollik va adolat ( $r=0,115$ ;  $p\leq 0,05$ ) jihatlarining oshishiga sabab bo'lishi mumkin.


Egosentrik yo'nalganlik rivojlanganligi burch va mas'uliyat ( $r=0,135$ ;  $p\leq 0,05$ ), o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat ( $r=0,155$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r=0,142$ ;  $p\leq 0,05$ ), jamoatchilik, do'stlik hissi ( $r=0,167$ ;  $p\leq 0,01$ ), xushmuomalalik ( $r=0,136$ ;  $p\leq 0,05$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,118$ ;  $p\leq 0,05$ ) xususiyatlarining oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Guruhga yo'nalganlik rivojlanganligi burch va mas'uliyat ( $r=0,128$ ;  $p\leq 0,05$ ), tejamkorlik ( $r=0,126$ ;  $p\leq 0,05$ ), o'qishga nisbatan mas'uliyatli munosabat ( $r=0,169$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r=0,124$ ;  $p\leq 0,05$ ), jamoatchilik, do'stlik hissi ( $r=0,195$ ;  $p\leq 0,01$ ), xushmuomalalik va sezgirlik ( $r=0,178$ ;  $p\leq 0,01$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,153$ ;  $p\leq 0,01$ ) jihatlarining oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Gumanistik yoʻnalganlikning shakllanganligi burch va masʼuliyat ( $r=0,164$ ;  $p\leq 0,01$ ), tejamkorlik ( $r=0,117$ ;  $p\leq 0,05$ ), intizomlilik ( $r=0,177$ ;  $p\leq 0,01$ ), oʻqishga nisbatan masʼuliyatli munosabat ( $r=0,185$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r=0,194$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik, doʻstlik hissi ( $r=0,153$ ;  $p\leq 0,01$ ), xushmuomalalik ( $r=0,213$ ;  $p\leq 0,01$ ), halollik va adolat ( $r=0,165$ ;  $p\leq 0,01$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,154$ ;  $p\leq 0,01$ ) xususiyatlarining oshishiga sabab boʻlishi mumkin.

Dunyoga yoʻnalganlikning rivojlanganligi burch va masʼuliyat ( $r=0,201$ ;  $p\leq 0,01$ ), tejamkorlik ( $r=0,199$ ;  $p\leq 0,01$ ), intizomlilik ( $r=0,195$ ;  $p\leq 0,01$ ), oʻqishga nisbatan masʼuliyatli munosabat ( $r=0,293$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik mehnatiga munosabat ( $r=0,255$ ;  $p\leq 0,01$ ), jamoatchilik, doʻstlik hissi ( $r=0,224$ ;  $p\leq 0,01$ ), xushmuomalalik ( $r=0,245$ ;  $p\leq 0,01$ ), halollik ( $r=0,198$ ;  $p\leq 0,01$ ), oddiylik va kamtarlik ( $r=0,188$ ;  $p\leq 0,01$ ), madaniyat darajasi ( $r=0,146$ ;  $p\leq 0,01$ ) xususiyatlarining oshishiga sabab boʻlishi mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Shaxsda axloqiy oʻzini-oʻzi anglashni rivojlantirishning psixologik texnologiyalari**» deb nomlanib, shaxsda axloqiy oʻzini-oʻzi anglashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, oʻsmirlik davrida axloqiy oʻzini-oʻzi anglashni rivojlantirishning psixologik texnologiyalari, oʻsmirlik davrida axloqiy oʻzini-oʻzi anglashning rivojlanishining xususiyatlari yoritilgan.



**1-rasm. Oʻsmirlarda axloqiy oʻzini-oʻzi anglashni rivojlantirishga taʼsir qiluvchi mexanizmlar.**

Oʻsmirlarda axloqiy oʻzini-oʻzi anglashning xususiyatlarini aniqlash tadqiqot ishimizda belgilangan asosiy vazifalardan biridir. Shu boisdan ham ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida sinaluvchilarga ijobiy taʼsir oʻtkazishga xizmat qiluvchi 3 ta boʻlimni oʻz ichiga olgan maxsus korreksion-rivojlantiruvchi psixologik dastur ishlab chiqildi. Mazkur dasturning metodologik asoslari Aaron Bekning kognitiv qayta qurish psixokorreksion gʻoyalari, Karl Rojersning mijozlar markazlashgan terapiyasi, Viktor Franklning ekzistensial terapiya yondashuviga asoslangan.

